

TARBIYAVIY ISHLARDA IJOBIY PSIXOLOGIYA TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH: IJOBIYLIKNI RAG'BATLANTIRISH USULLARI

Xamroqulova Layloxon Arabjon qizi

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Masofaviy ta'lim 25-05 talabasi

Telefon: +998942070449

Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li

“Kompyuter injiniring va raqamli texnologiyalar” kafedrasida o'qituvchisi

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Email: xalimjonov12.34@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17254775>

Annotatsiya: O'quv tarbiya jarayonida bilim berishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish, rivojlangan davlatlar ta'lim tajribalaridan maqsadli foydalanish – ta'lim sifati va samaradorligini kafolatlaydi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan fan, mavzu va uning mazmunida o'rinli foydalanish ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratadi. Bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan yoshlarga jamiyatni barqaror istiqbolli kelajagini ta'minlay oladi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, zamonaviy pedagogik, ta'lim sifati, axborot texnologiyalari, intellektual rivojlangan yoshlar

Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ham egadir. Ta'lim – tarbiya yagona jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ta'lim va tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir. Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish, unga tayyorlanishda mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilimlar bilan Uning ta'limda qanday farqli tomonlari mavjud? “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining predmeti kasb-hunar maktablari, akademik litseylarda ta'lim-tarbiya oladigan o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga oid nazariy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir qurollantirish bo'lsa, tarbiya yoshlarning jamiyatimizning qonunlariga javob bera oladigan e'tiqodini, axloqiy tushuncha va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishda muhimdir. Abdulla Avloniyning «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham bir biridan ayrilmaydigan, birining biriga bog'langan kabitur» deb ta'kidlashi bejiz emas.

Ma'lum bo'ladiki, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining asosiy vazifasi bilim berib, tarbiyalash tamoyiliga ko'ra tarbiyalab, bilim berish bo'lmog'i lozim. Psixologik testlar natijalari shuni ko'rsatdiki, har birbolaning ijodkorlik darajasi va qobiliyatlari turlicha bo'lishi mumkin. Shuning uchun, ijodkorlikni baholashda individual farqlarni hisobga olish muhim. Har bir bolaga alohida yondashuv zarur va ularning kuchli tomonlarini aniqlash hamda rivojlantirish kerak. Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalarda ijodkorlikni rag'batlantirish kompleks yondashuv talab etadi. Ota-onalar, o'qituvchilar va psixologlar hamkorligida ishlab chiqilgan strategiyalar bolalarning ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Shu bilan birga, individual farqlarni

hisobga olish va har bir bolaning ehtiyojlariga mos yondashuvni qo'llash zarur. Tadqiqot natijalari bolalarning ijodkorligini rag'batlantirish uchun psixologiyaning ahamiyatini ko'rsatadi. Ota-onalar va o'qituvchilar bolalarga ijodkorlik uchun qulay sharoitlar yaratishi, ularning mustaqilligini qo'llab-quvvatlashi va ijobiy rag'batlantirishi muhim. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar va mashg'ulotlarni joriy etish tavsiya etiladi. Ijodkorlikni rag'batlantirishda bolaning yoshiga mos yondashuv zarur. Kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin va ijodiy faoliyatlar katta ahamiyatga ega bo'lsa, o'rta va katta yoshdagi bolalarda muammolarni hal qilish va loyihalar ustida ishlash kabi yondashuvlar qo'llanilishi mumkin. Ijodkorlikni baholashda psixologik testlardan foydalanish foydali bo'lishi mumkin, lekin ularning natijalari ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi kerak. Testlar bolaning ijodiy salohiyati haqida umumiy ma'lumot beradi, ammo individual farqlarni hisobga olmaydi. Shuning uchun, testlar bilan bir qatorda kuzatuvlar va suhbatlar ham muhim ahamiyatga ega.

Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo saodat masalasidir"- deya ta'kidlaganida qanchalik haqli ekanligini, hayotning o'zi isbotlab turibdi. Tarbiyaning eng muhim vazifasi yosh avlodda mustahkam e'tiqod hamda ularga asoslangan ma'naviy xulq-atvorni xosil qilishdir. Bu vazifani shaxsni faol va muayyan maqsadni ko'zlagan holda tarkib toptirishning psixologik qonuniyatlarini, axloqiy taraqqiyot qonuniyatlarini umumiy va o'ziga xos yakka psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda to'g'ri hal etish mumkin. O'quvchilarni rag'batlantirishning psixologik xususiyatlari haqida bir nechta olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida juda muhim fikrlarni ilgari surgan bo'lib, yurtimiz olimlaridan J. Xasanboyev va X. To'raqulovlarning fikrlariga ko'ra: "Rag'batlantirish o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi" - deb hisoblaydilar. Rag'batlantirish metodlari turli xil bo'lib, ular tarkibiga ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofotlash va boshqalar kiradi. Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo'lishi kerak. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o'rnini hisobga olish va u bitta o'quvchi uchun ketma-ket bo'lmasligi kerak. Doimiy ravishda haddan oshirib maqtash, jamo'aga nisbatan taqqoslash, talabchanlikni bo'shashtirib yuborish bular o'quvchida man-manlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batni tashkil etishda o'quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o'rne, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi. Sh.A.Amonashvili rag'batlantirish metodiga quyidagicha ta'rif beradi. Rag'batlantirish - bu shaxsning harakatlariga yuqori baho berish orqali uning ijobiy ko'rinishlarini rag'batlantirish, insonning sa'y-harakatlari va harakatlarining boshqalar tomonidan e'tirof etilishidan zavq va quvonch hissini shakllantirish. Amonashvili texnologiyasidagi har bir pedagogik (muammoli) vaziyat o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarda ijodkorlikni rag'batlantirish uchun psixologiya muhim rol o'ynaydi. Xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, erkinlik va mustaqillikni ta'minlash, ijobiy fikr-mulohazalar bildirish hamda ijodiy faoliyatlarni tashkil etish bolalarning kreativligini rivojlantirishga yordam beradi. Ota-onalar va ta'lim muassasalari hamkorligida ishlab chiqilgan dasturlar va strategiyalar bolalarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Bolani har taraflama qo'llab-quvvatlash zarur va unga qulay sharoitlarni yaratib berish kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. J. Xasanboyev, X. To'raqulov va boshqalar "Pedagogika". Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -Toshkent: «Noshir», 2011.
2. E.G'oziyev " Umumiy psixologiya". Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik I -kitob Toshkent – "Universitet" – 2002.
3. Qojaspirova G.M. Pedagogika: Seminar va o'quv-uslubiy materiallar. - M. VLADOS - 2003 yil.
4. Markova A.K., Matis T.A., Orlov A.B. O'rganish uchun motivatsiyani shakllantirish: o'qituvchi uchun kitob. - M : Ta'lim. 1990 yil